



VOYAGA YETMAGANLAR VA YOSHLAR TOMONIDAN SOVUQ QUROL
YOKI SOVUQ QUROL SIFATIDA FOYDALANILISHI MUMKIN BO'LGAN
ASHYOLARDAN FOYDALANISHDAN KELIB CHIQADIGAN
MUAMMOLAR HAMDA ULARNI BARTARAF ETISHDA
HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING
O'RNI VA AHAMIYATI

*Omonov Nu'monjon O'tkir o'g'li
Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi
2-o'quv kursi 209-guruh kursanti*

Аннотация: В данной статье рассматривается профилактика таких негативных действий, как ношение холодного оружия среди несовершеннолетних и молодежи, угроза или применение его во время драк, защита несовершеннолетних и молодежи от насилия и жестокости и современное состояние работы с ними. о выявлении возникающих проблем и мерах по их устранению.

Ключевые слова: Подросток, несовершеннолетний, беспрзорный, социально уязвимый несовершеннолетний, социально незащищенная семья, индивидуальная профилактическая работа, насилие, жестокость, газовый пистолет, пневматический пистолет, разоблачительное оружие, холодное оружие, предметы, которые могут быть использованы в качестве холодного оружия.

Abstract: In this article, the prevention of negative actions such as carrying cold weapons among minors and youth, threatening or using them during fights, and protecting minors and youth from violence and cruelty and the current state of working with them. There is talk about identifying the emerging problems and measures to eliminate them.

Key words: Youth, juvenile, unsupervised, socially vulnerable juvenile, socially vulnerable family, individual preventive work, violence, brutality, gas gun, air gun, whistleblower weapons, cold weapons, items that can be used as cold weapons.

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida sovuq qurollarni olib yurish, o'zaro janjal vaqtida ular bilan qo'rqtish yoki qo'llash kabi salbiy harakatlarning oldini olish hamda voyaga yetmaganlar va yoshlarni zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoyalash va ular bilan ishslashning bugungi kundagi holati, yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralari haqida so'z boradi.



Kalit so`zlar: Yoshlar, voyaga yetmagan, nazoratsiz, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmagan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oila, yakka tartibdagi profilaktika ishi, zo‘ravonlik, shafqatsizlik, gazli quroq, pnevmatik quroq, signal beruvchi quroq, sovuq quroq, sovuq quroq sifatida foydalaniishi mumkin bo‘lgan ashylar.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi ijtimoiy xavfli hodisadir. Chunki u: – jamiyat taraqqiyotiga, iqtisodiy islohotlarga va davlat boshqaruviga tÙsqinlik qiladi; – jamiyat sokinligini, jamoat tartibini va aholining osoyishta hayot kechirishini buzadi, ijtimoiy va siyosiy vaziyat- ni keskinlashtiradi; – inson huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari buzi- lishiga, ijtimoiy hayotning yomonlashuvi va ijtimoiy insti- tutlarning beqarorligiga olib keladi; – jamiyat a’zolariga keltirayotgan moddiy, ma’naviy va jismoniy zarari bilan insonlarda ishonchsizlik, vahima, qìrguv hissini uyg‘otadi; – mustahkam fikrga ega bÙlmagan shaxslarning tengdoshla- rining xulq-atvorini buzadi, ularni jinoyat sodir etishga undaydi; – jinoyatilikning sabab va sharoitlarini yanada kuchaytira- di va hokazo 1

Kriminologik tadqiqotlarda shaxs jinoiy faoliyat yÙliga qancha erta kirsa, bu faoliyat shuncha uzoq davom eti- shi va xavfiroq tus olishi kÙrsatiladi. Retsidivistlarning kÙrchipiligi birinchi jinoyatini voyaga yetmasidan sodir etgan. Shu boisdan voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining krimino- logik jihatlarini ïrganish va uning oldini olishni takomil- lashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishi va amalga oshirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. 2-§. Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsi Voyaga yetmagan jinoyatchining shaxsini aniqlashda avval shaxs undan oldin esa inson tushunchalariga javob topishimiz lozim bÙladi. Inson moddiy olamning uzviy qismidir. O‘zi yashayotgan ta- biiy muhitga moslashib oladigan hayvonlardan farqli ïlaroq, odam ijtimoiy organizm, uyushgan ijtimoiy kuch sifatida ta- biatga muayyan darajada qarshilik kÙrsatadi, ïzi yashayotgan muhitni ïzgartiradi, uni ïz ehtiyoj va manfaatlariga mo- slashtiradi. Inson tabiat bilan yashaydi. Tabiat inson tanasi- dir 1 . Insonning hayvondan farqi shundaki, u ongli, faol mavjudotdir. TÙg‘ri, sizda hayvonlarda ham ong mavjudku, degan savol tug‘ilishi mumkin. Biroq u oldindan qÙyilgan maqsadlarga muvofiq, tabiatdan ïz ehtiyojlarini qondirish uchun foydalinish bilan birga, uni ïzgartiradi. Shu ma’noda inson nafaqat atrof-muhit mahsuli, balki uning bunyodkori hamdir.

Respublikamizda voyaga yetmaganlar uchun umumta’lim mak- tablarida bilim olishga shart-sharoitlar yaratilgan, biroq ay- rim ota-onalar yoki ularning ïrnini bosuvchi shaxslar tomoni- dan voyaga yetmaganlarni bilim olishiga tÙsqinlik qilish holatlari mavjudligi achinarli holdir. Davlatimiz tomonidan voyaga yetmaganlarning bilim olishiga tÙsqinlik yoki qarshilik qilish holatlarini oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik tÙg‘risidagi

kodeksining 47-moddasida javobgarlik belgilangan. Unga asosan ota-onalar yoki ularning йўрни bosuvchi shax- slar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik, shu jumladan voyaga yetmagan bolalarning ma’muriy huquqbuzarlik sodir etishiga olib kelishi aytilgan

Internetda keltirilgan ma’lumotlarga кіра dunyo bùyicha 250 mln.ga yaqin bola йқish ўrniga ishlab kelmoqda, 5,7 million nafar bola majburiy mehnat bilan mashg‘ul, 70 mln.dan ortiq bolalar maktabga bormaydilar, 1,8 mln. nafar bola fohishabozlik yoki pornografiya bilan shug‘ullanadi, 1,2 mln. nafar bola odam savdosi qurboni bùladi2 . Ushbu raqamlarning їzi bizdan bolalarning huquqlarini himoya qilish ularni ta’minlash qanchalik muhim ekanligini ko’rsatadi.

O’smirning navbatdagi bosqichga (14–15 yosh) їtishi jarayo- nida bir qancha ўзгарishlar ro’y beradi. Ushbu bosqichda ўziga nisbatan hurmatga ehtiyoj ўsmirga xos bùlgan asosiy xususiyat- dir. Bunga erishish uchun u erkinlikka, mustaqillikka, ўz teng- doshlariga orasida dovruq taratishga harakat qiladi. Natijada u konfliktli holatlarga juda kìp tìqnash keladi. Shu yoshda ўsmirning xulq-atvorida jiddiy ўзгарishlar rùy beradi. Garchi mazkur yosh guruhining jinoiy faolligi 16–17 yoshlilarga qaraganda kamroq (15–20%) bùlsa-da, ushbu yoshda jinoyat sodir etish juda xavflidir1. O’smir shakllanishining ushbu bosqichida umumijtimoiy profilaktika chora-tadbirlari zamirida, eng avvalo, axloqiy, ma’naviy va mehnat bilan bog‘liq tarbiyani takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yotadi. Ma’lumki, 16–17 yoshda ўsmirda faol fiziologik ўzgari- shlar rùy beradi. Shaxs rivojlanishing mazkur bosqichidagi ўziga xos xususiyatlarni tushunish uchun undagi jinsiy, psicho- logik va sotsiologik ўzgarishlarni ўrganish juda muhimdir. Erkinlik va ijozat chegaralari kengaygan, ijtimoiy va jinsiy rivojlanish ўrtasidagi tafovut esa tobora kattalashib borayot- gan hozirgi davrda bu holat ,ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, jinoyatchi shaxslarni quyidagicha tasniflash mumkin: birinchidan, ularning sodir etgan jinoyatlarning turlari yoki xususiyatiga кіра tasniflash bunda: «ѓиг‘rilar», «firibgar- lar», «bezorilar», «zùravonlar», «poraxàrlar» va h.k; ikkinchidan, jinoyat sodir etish maqsadi yoki mativlari- ning xususiyatiga кіра tasniflash bunda: «g‘arazgìylar», «zùra- vonlar», «seksuallar», «nufuzlilar» va h.k; uchinchidan, ruhiy sog‘lomlik darajasiga кіра tasniflash bunda: ruhan sog‘lomlar, ruhiy kasallik bilan chegaradosh ho- latdagilar, psixopatlar, ruhiy kasallar bùladi; to‘rtinchidan, ijtimoiy-demografik belgilariga кіра tasnif-lash bunda: voyaga yetmaganlar, shu jumladan їg‘il bolalar va qiz bolalar, ayyollar, mansabdor shaxslar va xizmatchilar, ta’lim oluvchilar, ishlamaydiganlar, ilgari sudlanganlar, tadbirkorlar, ziyolilar, harbiy xizmatchilar va h.k.

Ayrim olimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabab- lariga: yashash, ѹqish yoki ish joyidagi muhitning salbiy ta’si- ri; ѹqishni tashlab ketgan ўsmirlar uzoq vaqt muayyan ish bilan shug‘ullanmaslik; ўsmirning notìg‘ri tarbiyalanishini belgi-

lovchi shart-sharoit omillari; yoshi kattalarning jinoyatga da- lolat qilishi; zırvavonlik va qonunga rioya qilmaslikni targ‘ib etuvchi kitoblar va filmlar ta’sirini kiritadilar. Voyaga yet- maganlar jinoyatchiligining omillari sifatida: nazoratsiz- lik; umumiy ta’lim maktablari va kollejlarda ta’lim-tarbiya ishlarida mavjud kamchiliklar; ishga joylashtirishda hamda ishlab chiqarishda tarbiya ishlarini tashkil etishda mavjud kamchiliklar; madaniy hordiq chiqarishni tashkil etishdagi kamchiliklar; voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish hamda unga qarshi bevosita kurash olib borish vazifalari zim- masiga yuklangan organlar faoliyatidagi kamchiliklar kìrsatilgan. Ayrimlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining sabablariga: ïsmirning kayfiyati va ruhiyatiga ta’sir kìrsatuvchi hayotdagi muvaffaqiyatsizliklar; ma’naviy va axloqiy mìljallarning beqarorligi; shaxslar jinoiy guruhi bilan yaqin aloqada bìllish yoki muayyan sharoitda ularning ïsmirga salbiy ta’siri; 51 ruhiyatining ayrim xususiyatlari; oila yoki jamoadagi noqulay shart-sharoitlarni ham kiritadilar

IIV matbuot xizmatining xabar berishicha, o’tgan 7 oy davomida IIO xodimlari tomonidan olib borilgan profilaktik va tezkor tadbirdar natijasida sovuq qurol yoki sovuq qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan ko‘plab buyumlar olingan. Jumladan 13 422 ta pichoq, 145 ta kastet suriken, 281 to‘qmoq bita, 330 ta boshqa xavfli buyumlarni olib yurgan shaxslar aniqlangan.

Toshkent shahrida o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida jamoat joylarida fuqarolardan 567 ta pichok, bir qancha bolta, kastet va bitalar topildi. Sovuq qurollar o‘quv dargohlaridagi o‘smirlarda borligi ham aniqlandi.

Poytaxtda 2021 yilning boshidan buyon fuqarolarda sovuq qurol va boshqa buyumlar topilishi bilan bog‘liq 655 ta fakt aniqlandi. Bu haqda Toshkent shahar IIBB matbuot xizmatixabar bermoqda.

Tekshiruvlar davomida 567 ta pichok, 3 ta bolta, 11 ta kastet, 34 ta bita va boshqa buyumlar topilgan.

Fuqarolarga nisbatan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 185–2 (sovuj qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan ashylarni olib yurish) moddasi bo‘yicha tegishli bayonnomalar rasmiylashtirildi. Fuqarolar, ayniqsa, yoshlar orasida pichoq va boshqa sovuq qurollarni olib yurish, o‘zaro janjal vaqtida ular bilan qo‘rqtish yoki qo‘llash kabi harakatlar ko‘plab uchramoqda.

Ichki ishlar organlari tomonidan aniqlangan sovuq qurol sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan predmetlarning 58 foizi ko‘chada, 22 foizi bozorlarda, 24 foizi ta’lim muassasalarida topilgan. Buning oqibatida fuqarolar o‘rtasida o‘zaro janjal sababli bir-biriga turli darajadagi tan jarohatlari yetkazilmoqda.

Bu jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan, barchada tashvish uyg‘otayotgan salbiy holdir. Jinoyat kodeksi 104-moddasi bo‘yicha 2017, 2018 va 2019-yillarda jami 3 ming 790 jinoyat sodir etilgan bo‘lib, shundan 906 tasida yoki 24 foizida pichoqdan foydalanilgan holda jarohat yetkazilgan.

Bu esa quroq yoki quroq sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan boshqa vositalarni ishlatib qasddan badanga shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida.

Shuningdek, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 14, 245, 287-moddalari 185-2 va 185-3-moddalari Xususan, 185-2-moddaning birinchi qismida fuqarolar tomonidan jamoat joylarida, shahar, shahar atrofiga qatnovchi, shaharlararo va xalqaro transportda kasbiy yoki sport faoliyati yoxud maishiy maqsadlarda sovuq quroq sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan ashayolarni ochiq holda (g‘ilosiz) olib kasbiy yoki sport faoliyati yoxud maishiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lmagan holda sovuq quroq yoxud sovuq quroq sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan, sport va xo‘jalik-maishiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan ashayolarni jamoat joylarida olib yurganlik o‘zini o‘zi himoya qilish maqsadida fuqaroviy qurolni (bundan o‘zini o‘zi himoya qilish quroli mustasno), sovuq qurolni hamda sovuq quroq sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan, sport va xo‘jalik-maishiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan narsalarni olib yurish bog‘liq javobgarlik kiritish ko‘zda, tutilmoxda. Sovuq quroq, sovuq quroq sifatida foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa ashayolar, shuningdek pichoqdan foydalangan holda sodir etilishi mumkin bo‘lgan huquqbazarliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

Voyaga yetmaganlar javobgarligi — 18 yoshga to‘imasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarning javobgarligi, jinoyat qonuniga binoan tayinlanadigan, qat’iy cheklangan jazo turlari. O‘zR jinoyat qonunida voyaga yetmaganlar sodir etadigan jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va b. holatlari e’tiborga olinib, alohida javobgarlik belgilangan. Bular: a) jarima; b) axloq tuzatish ishlari; v) qamoq; g) ozodlikdan maxrum qilish jazolaridan biridir. Ular jinoyatning turi va harakteriga qarab tayinlanadi va voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoning boshqa turlari, qo‘srimcha jazolar tayinlanishi mumkin emas (O‘zR JK, 81-modda). Voyaga yetmasdan jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan tayinlanadigan jazo miqdori va muddatlari ancha qisqartirilgan. Axloq tuzatish ishlari 1 oydan 1 y. gacha muddat doirasida belgilanadi va bu jazoni o‘tash uchun mahkumni o‘zi yashayotgan joydan boshqa joylarga jo‘natish mumkin emas. Qamoq jazosi 1 oydan 3 oygacha muddat doirasida tayinlanadi. Ozodlikdan mahrum qilish muddati ham voyaga yetmaganlar yoshi va jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasiga qarab belgilanadi: u 16 yoshga to‘lmaganlarga — uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — 3 y.gacha; og‘ir jinoyat uchun — 6 y.gacha; o‘ta og‘ir jinoyat uchun — 10 y.gacha; 16 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lganlarga — uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun — 4 y.gacha; ogir jinoyat uchun 7— y.gacha; o‘ta og‘ir jinoyat uchun — 10 y.gacha muddat doirasida tayinlanadi va har qanday holda bu muddatlardan chetga chiqilishi mumkin emas (O‘zR JK 85- va 86-moddalari). Sud tomonidan ozodlikdan mahkum etishga hukm qilingan voyaga yetmaganlar jazoni

Voyaga yetmaganlar tarbiya koloniyasida o'taydi. Voyaga yetmaganlarni javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilishning alohida qoidalari tadbiq qilinadi.

Shuningdek, jinoyati uchun 3 y.dan ko'p bo'lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilingan yoki undan ham yengilroq boshqa jazo olgan voyaga yetmaganlarni sud javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilib, jinoiy jazo hisoblanmagan quyidagi majburlov choralarini qo'llashi mumkin: a) sud belgilaydigan shaklda jabrlanuvchidan uzr so'rash; b) 16 yoshga to'lgan shaxs zimmasiga yetkazilgan zararni o'z mablag'i hisobidan yoki mehnati bilan to'lash yoki zararni bartaraf qilish majburiyatini yuklash; v) voyaga yetmaganni maxsus o'quvtarbiya muassasasiga joylashtirish. Uning jinoyatlari haqidagi ishlarni yuritish tartibi umumiy qoidalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi JPK 548—564-moddalari assosida belgilanadi.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining kriminologik tavsifi — 13 yoshdan 18 yoshga qadar bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning sabablari va ularning oldini olishga oid ma'lumotlar yig'indisi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi umuman jinoyatchilikni vujudga keltiruvchi omillar ta'sirida rivojlanadi. Shu sababdan ham voyaga etmaganlar jinoyatchiliginu tadqiq etishda kriminologiyaga oid bo'lgan umumiy tavsiflar, ko'rsatkichlar va usullardan foydalaniladi. Shu bn birga, voyaga etmaganlar jinoyatchiligining tahlili aynan voyaga etmaganlar jinoyatchiligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart — sharoitlarni aniqlashga qaratilishi lozim. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olishni jinoyat huquqiy choralar vositasida ta'sir ko'rsatish bn qo'shib olib borish o'sib kelayotgan avlodning ma'naviy sog'ligini muhofaza qilishning zarur sharti hisoblanadi. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi respublikamizda so'nggi yillarda umumiy jinoyatchilikning 3,4 %ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich 2005-y.da 4,2 % ni tashkil etdi. Jinoyatchilarning anchagina qismi latent bo'lib qolmoqda, chunki atrofdagilar ko'pincha ularning jinoyatlarini yoshi bn bog'liq bo'lgan sho'xlik deb hisoblaydilar va bu xaqda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar bermaydilar. Voyaga etmaganlar jinoyatchiligi quyidagi xususiyatlarga egadir: a) voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan zo'rlik ishlatish va tamagirlilik ular jinoyatchiligining 8 % ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich anchagina barqarordir.

Ma'lum qilinishicha, 2021-yil yanvar-dekabr oylarida sodir etilgan jinoyatlar umumiy soni 111 082 tani tashkil etib, bu jinoyatlardan 2595 tasi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sirasiga kiradi. "Oilalardagi notinchlik, nizolarning o'z vaqtida hal etilmasligi, mahalla faollari va keng jamoatchilikning e'tiboridan chetda qolganligi oqibatida o'ta og'ir jinoyatlar sodir etilmoqda". Birgina o'tgan 2021-yilning o'zida voyaga yetmaganlar tomonidan 2595 ta jinoyat sodir etilgan bo'lsa, bu ko'rsatgich undan oldingi yillarda past darajada edi. 2021-yilda voyaga yetmaganlar tomonidan yani 13-17 yoshlar tomonidan 12 ta qasddan odam o'ldirish va unga urinish kabi jinoyat sodir etilgan bo'lsa, 84 ta og'ir tan jarohati yetkazish bilan bog'liq jinoyat,

2021-yil yanvar-dekabr oylarida jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning soni 2 595 nafarga yetdi, bu esa umumiy sodir etgan jinoyatlarning 3,2 % ini tashkil etdi. Voyaga yetmaganlarning jinoyat sodir etganligi hududlar kesimida tahlil qilinganimizda, Farg‘ona viloyati (830 nafar) yetakchi o‘rinni egallagan. Keyingi o‘rinlarni Toshkent (267 nafar) va Namangan viloyatlari (238 nafar) egallagan. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning eng past ko‘rsatkichi Sirdaryo (39 nafar) viloyatlariga to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlar o‘rtasida o‘quvchilar soni 2 131 nafarni tashkil etdi. Hududlar kesimida ularning eng ko‘pi Farg‘ona (719 kishi), Toshkent viloyatlari (209 kishi) va Toshkent shahriga (200 kishi) to‘g‘ri keldi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 224 nafarni ishlamaydigan va o‘qimaydigan voyaga yetmaganlar tashkil etib, umumiy sonining 8,6 % ini tashkil etdi. Ularning soni bo‘yicha Toshkent (57 nafar), Qashqadaryo viloyati (21 nafar), Andijon viloyati (25 nafar) va Toshkent shahri (50 nafar) yetakchilik qilmoqda. Dunyodagi barcha davlatlarning milliy qonunchiligidagi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, xususan shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini turli 59 jinoiy tajovuzlardan himoya qilishga alohida ahamiyat berilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida “insoniyat oilasining hamma a’zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik,adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligi” e’tirof etilgan.

“Sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalaniishi mumkin bo‘lgan ashayolarni olib yurish ortidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar”

Hozirgi paytda fuqarolar tomonidan sovuq qurol yordamida bir qator jinoyatlar sodir etilmoqda. Xususan, joriy yilning o‘tgan olti oyi davomida jamoat joylarida harakatlanayotgan 14 957 nafar fuqaroda o‘tkir tig‘li, kesuvchan yoki zarb beruvchi predmetlar aniqlangan. Bularning 57 foizi ko‘chada, 22 foizi bozorlarda hamda 24 foizi ta’lim muassasalariga to‘g‘ri keladi. Albatta, o‘quv dargohlarida kuzatilayotgan bu kabi holatlar masalaning naqadar jiddiy ekanligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston qonunchiligidagi fuqarolar tomonidan sovuq qurol sifatida foydalaniishi mumkin bo‘lgan ashayolarni maqsadsiz jamoat joylarida hamda barcha turdagи jamoat transportlarida olib yurishga va maqsadli olib yurganda uni g‘ilosiz olib yurganlik uchun javobgarlik belgilanmaganlik sababli yuqoridagi holatlarga ta’sirchan chora ko‘rish imkoniyati bo‘limgan.

Shu va yana bir qator normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o‘zgartish va qo‘sishchalar tufayli endilikda fuqaroviy qurolni, sovuq qurolni yoki sovuq qurol sifatida foydalaniishi mumkin bo‘lgan ashayolarni olib yurganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Aytaylik, fuqaro oshxona pichog‘ini charxlash uchun g‘ilosda olib ketayotgan bo‘lsa, bu qonunga zid emas, aksincha bo‘lsa, ichki ishlar organlari xodimlari uni to‘xtatib sovuq qurolni nima maqsadda olib yurganligi to‘g‘risida tegishli tartibda



xatti-harakatlar olib borishi mumkin. Shuningdek, ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida axborotlar berildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-iyulda qabul qilingan "Qurol to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida quyidagicha ta'riflar berilgan:

gazli qurol — ko'zdan yosh oqizadigan yoki achishtiradigan moddalarni qo'llash yo'li bilan jonli nishonga vaqtinchalik shikast yetkazish uchun mo'ljallangan qurol;

pnevmatik qurol — siqilgan, suyultirilgan yoki qotirilgan gazsimon moddaning quvvati hisobiga yo'naltirilgan holda harakatga keladigan aslaha bilan nishonni masofadan turib urish uchun mo'ljallangan qurol;

signal beruvchi qurol — tuzilishi jihatidan faqat yorug'lik, tutunli yoki tovushli signallar berish uchun mo'ljallangan qurol;

sovuv qurol — shikast yetkaziladigan obyekt bilan bevosita to'qnashish chog'ida odamning jismoniy kuchi yordamida nishonni urish uchun mo'ljallangan qurol;

sovuv qurol sifatida foydalanishi mumkin bo'lgan ashylar — kasbiy, ishlab chiqarish yoki sport faoliyatida yoxud xo'jalik-maishiy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan, sanoat usulida yoki qo'l bola tarzda yasalgan tig'li, kesuvchi ashylar (pichoqlar, bigizlar va boshqa uchi o'tkirlangan sanchiladigan, kesuvchi ashylar), jismoniy kuch ishlatganda shikast yetkazishi mumkin bo'lgan ashylar (beysbol bitalari, softbol o'yini uchun bitalari); voyaga yetmagan — o'n sakkiz yoshga to'lмаган shaxs;

voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi — voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi, qarovsizligiga, ular tomonidan huquqbuzarliklar yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etilishiga imkon beradigan sabablar va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan, yakka tartibdagi profilaktika ishi bilan birgalikda amalga oshiriladigan ijtimoiy, huquqiy, tibbiy va boshqa chora-tadbirlar tizimi;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan voyaga yetmagan — voyaga yetmaganning nazoratsizligi yoki qarovsizligi oqibatida uning hayoti yoki sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan yoxud uni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish talablariga javob bermaydigan sharoitda bo'lgan yoxud huquqbuzarlik yoki boshqa g'ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etayotgan voyaga yetmagan;

ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila — ota-onalarni ota-onalarni bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila;

nazoratsiz — ota-onalarni ota-onalarni bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmaganni ta'minlash, tarbiyalash va unga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini



bajarishdan bo‘yin tovlaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik oqibatida xulq-atvori nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan voyaga yetmaganlar va oilalarni o‘z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklar yoki boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyat;

qarovsiz — aniq yashash joyi bo‘lmagan nazoratsiz qolgan voyaga yetmagan;

g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar — voyaga yetmaganning muntazam ravishda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-iroda faoliyatiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni iste’mol qilishida, fohishalik, tilanchilik bilan shug‘ullanishida ifodalananadigan xatti-harakatlari, shuningdek o‘zga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzadigan boshqa xatti-harakatlari.

Ichki ishlar organlari voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshiruvchi maxsus bo‘linmalari voyaga yetmaganlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘linmalaridan hamda voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlaridan iboratdir. Ichki ishlar organlarining boshqa bo‘linmalari voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasida o‘z vakolatlari doirasida ishtirok etadi hamda zarur yordam ko‘rsatadi.

voyaga yetmaganlarning yashash, o‘qish (ish) joyidagi ta’lim, madaniy-ko‘ngilochar, sport-sog‘lomlashtirish muassasalarida, boshqa tashkilotlarda, to‘garaklar va klublarda voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning ahvolini o‘rganadi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Irsaliyev A. Voyaga yetmaganlar jinoyat ishlarini birinchi bosqich sudida yuritishning xususiyatlari. - Т.: 2002.; Кулахметов А.Б. Прекращение уголовного дела с передачей материалов на рассмотрение комиссии по делам несовершеннолетних. -Т.: 1997.: Кашикет Э.Г. Правовые и организационные проблемы производства по делам несовершеннолетним. -Т.: 1993 Мирзабек Р. Проблема исполнения наказания исправительных учреждениях в отношении рецидивистов совершивших преступления в несовершеннолетнем возрасте.-Т.: 1999.; Rustambayev M.X. Jinoyat xuquqi (Umumiy qism). -Т.: TDYI. 2011.; Sobirov I., Toxirov F. Hozirgi davr va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, Falsafa va huquq instituti. T.:2002.; Uteniyazov M.K. Voyaga yetmaganlar giyohvandligining oldini olish muammolari.-Т.: 2004.; Долгова А.И. Криминология. - М.: 1997.; Карапев В.П. Уголовная ответственность несовершеннолетних - М.: Юридический литература. 1997.; Кудрявцев В.Н. Причинность в криминологии. - М., 1968.

2.Abdurasulova Q., Nizova S. Jinoyatchilik va jinoyatchi shaxsi muammolari. - Т.: TDYI. 2006. -B.23 - 41.; Zaripov S.Z. Voyaga yetmaganlar huquqbazarliklarining oldini olishda huquqiy tarbiya vositalarining ahamiyati. -Т.:1997.; Ismoilov N. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini individual oldini olish muammolari. -Т.: 2007.; M.Sattorova. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiliginı oldını olish. - Т.: TDYUI. 2006.;Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya. - Т.: Yangi asr avlodi. 2002.; Волков Б.С., Лисов М.Д. «Прованарушение несовершеннолетних и их предуприждения» -М.: КГУ. 1983.; Карапев Т.Э. «Проблемы изучения преступности в современных условиях» Баку. 1992. - С. 7.; Миньковский Г.М. «Некоторые причины преступности несовершеннолетних в СССР и меры её предупреждения» - М.: 1966.

3. Karimov I.A. "O'zbekston XXI asr bo`sag`asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". T.: O'zbekiston, 1997. -B.86.

4. Usmonaliev M., Karaketov Y. Kriminologiya. - Т.: Yangi asr avlodi. 2007. - B.36. 5 Abdurasulova Q. Kriminologiya fanidan ma'ruzalar tezisi. - Т.: TDYI. 2005. - B.8